
BILASIZMI?



↗ Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to'lash tartibi) aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs bilan aliment oluvchi (agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lsa, uning qonuniy vakili) o'rtasida tuziladi.

↗ Kelishuv yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim hamda ushbu kelishuv ijro varaqasi kuchiga ega bo'ladi.

↗ To'lanadigan alimentlarning miqdorini taraflar shu kelishuvda belgilaydilar.

↗ Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentning miqdori aliment sud tartibida undirilganda bolalar olishi mumkin bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligi kerak.

Majburiy ijro byurosi So'x tuman bo'limi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-08-18 18:46:37